

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

**O'ZBEKLISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIROMONOVICH  
MIRZIYOYEVNING OLIY MAJLISGA VA O'ZBEKISTON XALQIGA  
MUROJAATNOMASI TAHLILI**

**Nasrullahov Jamshid Abduraimovich**

*Chilonzor tumani 217- maktab direktori*

**Annotatsiya:** *Davlat rahbari har yili parlamentga yo'llagan murojaatnomasida o'tgan yil ko'rsatkichlarini e'lon qiladi, respublikani rivojlantirishning asosiy yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratadi, kelgusi yil uchun maqsad va vazifalarni belgilab beradi. So'nggi yillarda ilgari surilgan xabarlarning umumlashtirilgan tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy yordam, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, xalq farovonligini oshirish, tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash kabi masalalar davlat rahbarining yillik murojaatlarining ajralmas qismiga aylangan.*

**Аннотация:** Ежегодно в своем обращении к парламенту глава государства оглашает показатели прошедшего года, особое внимание уделяет основным направлениям развития республики, ставит цели и задачи на следующий год. Обобщенный анализ посланий, представленных в последние годы, показывает, что такие вопросы, как экономическое развитие, социальная помощь, поддержка предпринимательства, повышение благосостояния людей, укрепление мира и спокойствия, стали неотъемлемой частью ежегодных посланий главы государства.

**Annotation:** *Every year, in his address to the parliament, the head of state announces the indicators of the past year, pays special attention to the main directions of development of the republic, sets goals and objectives for the next year. A generalized analysis of the messages presented in recent years shows that such issues as economic development, social assistance, support for entrepreneurship, improving the well-being of people, strengthening peace and tranquility have become an integral part of the annual messages of the head of state.*

**Kirish**

Prezidentning Oliy Majlisga murojaatnomasi bilan chiqish an'anasi ilk bor 2017-yil dekabr oyida joriy etilgan bo'lib, ushbu murojaatnomalarda ko'tarilgan masalalar har yili jamoatchilik e'tiborini tortmoqda. Davlat rahbari har yili parlamentga yo'llagan murojaatnomasida o'tgan yil ko'rsatkichlarini e'lon qiladi, respublikani rivojlantirishning asosiy yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratadi, kelgusi yil uchun maqsad va vazifalarni belgilab beradi.

So'nggi yillarda ilgari surilgan xabarlarning umumlashtirilgan tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy yordam, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, xalq farovonligini oshirish, tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash kabi masalalar davlat rahbarining yillik murojaatlarining ajralmas qismiga aylangan.

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

Bugungi murojaatnomada odatdagidek o'tgan yilni sarhisob qildi va yaqin keljakda Respublikanirivojlantirishning asosiy yo'nalishlariga to'xtalib o'tdi.

Kirib kelayotgan yilning "Insonga e'tibor va sifatli ta'lism yili" deb nomlanishi mamlakatimizda xalq ta'limi rivoyjlantirishga qo'yilgan ildam qadamlardan biri bo'ldi .

Murojaatnomada asosiy 6 ta ustuvor yo'nalishga to'xtalib o'tildi :

**Birinchisi:** ---Ixcham

va samarali davlat boshqaruv tizimiga o'tish , bunda Vazirlik va idoralar soni hozirgi 61 tadan 28 taga kamaytiriladi .

-Davlat xizmatchilari soni bosqichma –bosqich 30-35 foizga qisqaradi .

-Vazirliklar faoliyatida ochiqlik, qonuniylik , natijadorlik va sifat asosiy mezon bo'ladi.

–Deputatlar vazirlarga qaysi yo'nalishda yoki hududda ish yaxshi ketmayotganini ko'rsatishi , kamchiliklar bo'yicha joyiga chiqib , aholi fikrini o'rganib , masalaga birgalikda yechim topishi lozim.

–Bundan buyon davlat lavozimlariga faqat konkuirs asosida ishga qabul qilinadi. Barcha rahbarlar faoliyati samaradorlik ko'rsatgichlari asosida baholab boriladi .

–Samarqand va Namangan shaharlarini alohida ma'muriy-hududiy birliklar sifatida respublika bo'yсинувига о'tказиш taklif qilindi.

**Ikkinci yo'nalish-**Yangi O'zbekistonni "ijtimoiy davlat " tamoyili asosida qurish Ijtimoiy davlat bu , eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar , odamlar munosibn hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish , kambag'allikni qisqartirish demakdir. Bo'lgan ta'limi qo'llab-quvvatlashga qaratilishi haqida gapirildi .

–Maktablarda ta'lim sifati va jamiyatda o'qituvchi kasbining nufuzini oshirish , mualimlarning sharoitini yaxshilash 2023-yildagi eng asosiy vazifalarimizdn biri bo'ladi.

–Yangi darsliklarni ishlab chiqish , ilg'or ta'lim standartlari va metodikalarini joriy etish uchun alohida ilmiy institut va laboratoriya tashkil etish rejalashtirildi.

–Kelgusi yili 70 ta yangi maktab qurish va 460 ta maktab kengaytirilishi , xususiy invetitsiyalar ishtirokida 100ta maktab qurish loyihalari boshlanadiva kelgusi 5 yilda ularni sonini minghtaga yetkazish rejalashtirildi.

–Kelgusi o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bepul ovqatlanish yo'lga qo'yiladi .

-So'nggi yillarda oliyoholar soni 2,5 barobarga ko'payib 198 taga yetdi, qamrov darajasi 9 foizdan 38 foizga oshdi , 41 ta oliyohga akademik va moliyaviy mustaqilik berildi.

-“To'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzi ” yangi umummilliy harakatini mahalladan boshlash rejalashtirildi.

-Kelgusi yilda Samarqand,Farg'ona va Xorazmda, davlat-xususiy sheriklik asosida Radiologiya markazlarini tashkil etish loyihalarini boshlash rejalashtirildi.

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

-Mahalla o'zining muammosini mustaqilhal etishi uchun "Mahalla byudjeti" tizimi joriy etilishi va buning uchun yangi yilda 1 yanvardam boshlab mol-mulk va yer soliqlarining bir qismi mahallaning o'zida qolishibergilandi.

**Uchinchi yo'nalish-** Inson huquqva erkinliklarini ishonchli himoya qilish

-Huquq targ'ibot idoralarini yangicha ishlashga o'rgatadigan, odil sudlov sifatini oshiradigan tizim yaratilishi belgilab o'tildi.

-Tintuv o'tkazish , telefon so'zlashuvlarini eshitish va mulkni xatlashga sanksiyalar prokurordan sudga o'tkazildi.

-Ma'muriy sudlarga hokim qaroridan norozi bo'lib murojaat qilingan taqdirda , ishlarni eksterritorial tartibda ya'ni boshqa hududda ham ko'rish jarayoni joriy qilinishi belgilandi.

-O'zbekistonda mulk va investitsyaning himoyachisi qaysidir hokim yoki vazir emas, faqat Konstitutsiya, qonun va sud bo'lishi ta'kidlandi.

**Tortinchi yo'nalish-**Ekologiya,suv masalalari

-Suvning hisobini ochiq va oshkora yuritish tizimi joriy etilishi va kelgusi uch yilda 13 mingga yaqin suv xo'jaligi ob'ekti raqamlashtirilishi. Shu bilan birga , 16 ta yirik nasos stansiyasi davlat- xususiy sherikchiik asosida modernizatsiya qilinishi va muqobilenergiyaga o'tkazilishi rejalashtirildi.

-“Yosh makon” umummilliy loyihasi doirasida ishlar kuchaytirilishi ta'kidlandi

-2023-yilda ham suv ta'minoti yaxshi bo'lgan 100 ming gektar qo'shimcha ekin maydoni aholiga ajratilishibergilandi va buning xisobidan 350 mingta yangi dehqon xo'jaligi tashkil etiladi

**Beshinchi yo'nalish-** Erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish , sog'lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash , tadbirkorlarni qo'llab- quvvatlash

Kelgusi yildan boshlab tumanva shaharlar mavjud sharoiti , salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib , 5 ta toifaga ajratilishi belgilandi. Jumladan tadbirkorlar uchun har tomonlama rivojlangan 26 tuman- birinchi toifaga, infratuzilmasi yaxshi bo'lgan 46 ta yuman –ikkinchi toifaga, sharoiti nisbatan qoniqarli bo'lgan 76 ta tuman – uchinchi toifaga, jozibadorligi yetarli bo'limgan 40 ta tuman – to'rtinchi toifaga, sharoiti og'ir bo'lgan 20 ta tuman – beshinchi toifaga ajratildi.

- 1 yanvardan boshlab qo'shimcha qiymat solig'i 15 foizdan 12 foizga pasaytiriladi.

- Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy , Samarqand , Farg'ona viloyatlarida barpo etiladigan quyosh va shamol elektr stansiyalari hisobidan qo'shimcha 14 milliard kilovatt elektr ishlab chiqariladi. Bu orqali xonadonlarga beriladigan elektr energiyasi 50 foizga ko'payishi rejalashtirildi.

**Oltinchi yo'nalish-** Iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy xususiy investitsiyalarni ko'paytirish

"Yurtdoshlarimiz orasida yuz minglab mulkdorlar, aksiyadorlar paydo bo'lsin, odamlarimiz o'z omonatlarini investitsiya qilib , yuqorida romadga ega bo'lsin "-deydi

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

Prezidentimiz o’z nutqida . Va bunga qo’shimcha tarzda Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo’lish bo’yicha asosiy muzokaralarni yakublab , ichki qonunlarga moslashtirish , yangi standartlarnijoriy qilish ishlarini jadallashtirish haqida ham ta’kudlab o’tdilar.

So‘zlarning yo‘nalishlar bo'yicha taqsimlanishi tahlili shuni ko'rsatdiki, asosiy e'tibor quyidagilarga qaratilgan: prezident nutqining asosiy qismi ta'lim-tarbiya sohasiga bag'ishlangan bo'lib, ixcham va samarali davlat boshqaruvini tashkil etish, tadbirkorlikni rivojlantirish, energetika sohasini takomillashtirish va sud-huquq tizimini isloh qilish haqida ko'p gapirildi.

Prezidentning 2023-yilga mo'ljallangan murojaatnomasining muhim yo‘nalishlaridan biri ta’lim siyosati bo’ldi. Maktabgacha ta’lim masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan maktabgacha ta’limga investitsiyalar shaxsning IQ va ijtimoiy unumдорligini rivojlantirishga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Xususan, maktabgacha ta’lim muassasalariga investitsiya qilingan bir dollar davlatga 15—20 yil ichida 8 dollar bilvosita foyda keltirishi taxmin qilinmoqda.

Ko‘rinib turibdiki, Murojaatnomada Prezidentimiz qayta-qayta aynan yoshlar tarbiyasiga keng to‘xtaldilar. Haqiqatdan ham, hozirgi tez sur’atlar bilan avj olayotgan globallashuv jarayonida mamlakatimiz o’z oldiga ezgu maqsadlar bilan taraqqiyotning yangi davriga qadam qo‘ymoqda. Bu esa, bugungi yoshlar bilan bevosita ishlashadigan ta’lim-tarbiya muassasalarining barcha bo‘g‘inlarida faoliyat yuritayotgan mas’ullarga, jamoat tashkilotlari xodimlariga hamda unib-o‘sib kelayotgan yurtimizning ertangi kungegalar bo‘lgan yoshlarga juda katta talablarni qo‘ymoqda.

Bunday sharoitda oliy ta’lim muassasalari xodimlaridan har qachongidan ko‘ra fidoiylikni, ko‘proq o‘qib izlanishlikni, yangi davr bo‘sag‘asida yoshlarimizga haqiqiy ma’noda ustozlik qilib, to‘g‘ri yo‘naltira olishlikni, eng asosiysi, ibratli ustoz sifatida shaxsiy namuna bo‘lishlikni talab qilmoqda.

Murojaatnomada Oliy ta’lim tizimiga qo‘ylgan vazifalardan kelib chiqib, yoshlarimizda axborot va kommunikativ madaniyat, ijodiy, kreativ, innovatsion rivojlanish qobiliyati, kasbiy munosabatlar kompetensiyalari va liderlik fazilatlari bilan birga Vatanga sadoqat, mustahkam mafkuraviy immunitet va mas’uliyat hissinini tarbiyalashni talab etmoqda. Zero, dunyoda ro‘y berayotgan ma’naviy yemrilishlar, azaliy milliy qadriyatlarni qadrsizlantiruvchi «ommaviy madaniyat», informatsion xurujlar, axloqsizlik falsafasi, ekstremizm, missionerlik, separatizmni targ‘ib etuvchi saytlar, turli shoular, ko‘ngilochar ko‘rsatuvlar va musiqiy kanallar bugungi global va lokal ma’naviy hayotimizning ob’yekтив manzaralariga aylanib ulgurdi.

Ta’kidlash lozimki, bugun dunyoda mana man degan eng buyuk davlatlar ham ma’naviy-madaniy hayotda yuz berayotgan inqiroziy jarayonlarga mutaxasislar tomonidan favqulorra holat deb, e’tirof qilinmoqda. Dunyoga mashhur siyosatchilar – G‘arb dunyosi halokot tomon borayotganligini qayg‘u bilan qayd etayotgan amerikalik taniqli siyosiy sharhlovchi P.J.Byukenenning so‘ngi yillarda e’lon qilingan kitoblari sarlavhalarining nomlanishi hammani ogohlikka chorlaydi. Masalan: «Buyuk xoinlik:

Amerika suvereniteti va ijtimoiy adolat global iqtisodiyot tangrisiga qurbon etilgani haqida», «G‘arbning halokati: aholining kamayishi va muhojirlikning kuchayishi mamlakatimiz va tamaddunimizga qanday tahdid solmoqda», «O‘nglarning so‘llarga aylanishi», «G‘arbning xalokati» kitoblarida AQSHda vujudga kelgan vaziyatni chuqur va atroficha tahlil etar ekan, muallif o‘z yurtining tanazzulini, avvalo, yoshlar tarbiyasi mutlaqo qo‘ldan chiqib ketayotganligi, madaniyatining yemirilayotganligini, azaliy urf odatlarning yo‘qolayotganligini, asrlar davomida e’zozlab kelingan qadriyatlarning toptalayotganligi bilan bog‘laydi.

Shunday ekan, bugun davr bizdan, xususan, ziyolillardan “Yangi O‘zbekistonni, Yangi Qoraqalpog‘istonni buniyod etishimiz uchun yoshlarimizda qaysi fazilatlarni kuchaytirib, qaysi illatlarga chek qo‘yishimiz kerak?”, “Hozirgi murakkab mafkuraviy globallashuv zamonida xalqimiz, yoshlarimiz ma’naviy hayoti qanday kechayapti?”, “Qanday qilib internet va yuksak texnologiyalar asrida yoshlarimiz tarbiyasi va milliy ma’naviyatimizni saqlab qolib, yuksaltiramiz?”, “Jaholatga qarshi ma’rifat bilan qanday kurashishimiz kerak?”, degan savollarga oila, mahalla bilan bir qatorda ta’lim muassalarida faoliyat ko‘rsatayotgan ziyoli qatlam ham javob berishi va yoshlarimizni buniyodkor ishlarga da’vat qilishi lozimdir.

Darhaqiqat, dunyoning eng rivojlangan davlatlari Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya tarixiga qarasak, yoshlar tarbiyasi hamda milliy ma’naviyatini saqlab qolish borasidagi umummilliy xalq safarbarligi, vayronaga aylangan bu mamlakatlarni yuksak rivojlangan davlatga aylantirdi. Hech kim chetdan kelib ularni baxtli qilgani yo‘q. Ular o‘z baxtini o‘z qo‘llari bilan, aqli, innovatsiyalari, yuksak ma’naviyati hamda mas’uliyat va fidoyiliklari bilan yaratishdi.

Shunday ekan, ta’lim muassasalarida, xususan, institutimizda yangi 2023-yilda yoshlar tarbiyasi masalasi tez orada tasdiqlanadigan «Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili» Davlat dasturida belgilangan jarayonlar bilan uyg‘un bo‘lishligi talab etiladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlaymizki, bugungi shiddatli davrning o‘zi yoshlar tarbiyasi masalasida ilgari qo‘yilmagan yangi vazifalarni amalga oshirishni talab qilmoqda. Ya’ni, ilgari talabalarga Vatanparvarlik, shukronalik, milliy g‘oya, buzg‘unchi va buniyodkor g‘oyalar to‘g‘risida bilim berish bilan cheklanib kelingan bo‘lsa, endilikda ularni oliy maqsadlarga yo‘g‘rilgan buniyodkor g‘oyalar asosidagi bilimlarini hayotda qo‘llay bilishni ham o‘rgatishni talab etmoqda.

Haqiqatdan ham, Prezidentimiz Murojaatnomada ta’kidlaganidek, “Har qanday buyuk taraqqiyotga – faqat mashaqqatli va jasoratli mehnat orqali erishiladi”. Mana shunday ezgu maqsadlar yo‘lidagi fidokorona faoliyatimizda barchamizga omad, ishlarimida muvaffaqiyatlar bo‘lavserin!